

UDK: 342.156



RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BUDJET IJROSIDA G'AZNACHILIK TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КАЗНАЧЕЙСКОЙ СИСТЕМЫ В ИСПОЛНЕНИИ БЮДЖЕТОВ РАЗВИТЫХ СТРАН

THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE TREASURY SYSTEM IN THE IMPLEMENTATION OF THE BUDGET OF DEVELOPED COUNTRIES.

Rejapov Saydulla Xikmatullayevich ¹

Annotatsiya:

Maqolada rivojlangan mamlakatlar budjet ijrosida G'aznachilik tizimi tahlil etilgan. Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, AQSh mamlakatlarida G'aznachilikning o'rni hamda ahamiyati to'g'risida ilmiy mulohazalar olib brogan. Jumladan, Fransiya g'aznachilikning tashkil qilinish tarixi, uning funktsiyalarini Davlat G'aznasi va Davlatning hisob-kitob yuritish bosh dereksiyasi o'rtasida taqsimlanishi hamda barcha moliyaviy resurslar G'aznachilikning yagona hisobraqamida yig'ilishi ochib berilgan. Bundan tashqari Davlat G'aznasi huquqlari, va kadrlar masalasi organilgan. Buyuk Britaniya G'aznachiligi Departamenti, ularning tarkibi yoritib berilgan. Italiya budjet ijrosi dinamikasi tahlil qilingan hamda Italiyaning investorlarni jalb qilish imkoniyatlari o'rganilgan. AQShda G'aznachilik o'rni, ning tarkibi, tizimda faoliyat yuritadigan departamentlar funktsiyalari tahlil qilingan. AQShda g'aznachilik tizimida moliyaviy aktivlar va davlat qarzlarning barcha turlari bo'yicha hisob-kitob yuritishda g'aznachilik roli o'rganilgan. Tadqiqot natijalari bo'yicha xulosalar olingan va ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Аннотация:

В статье анализируется казначейская система в исполнении бюджетов развитых стран. Были разработаны предложения с научными соображениями о роли и значении казначейства во Франции, Великобритании, Италии, США. В частности, раскрывается история организации казначейства во Франции, распределение его функций между Государственным казначейством и Государственной

¹ o'qituvchi, ALFRAGANUS UNIVERSITY, Toshkent, O'zbekiston. e-mail: srejapov1985@mail.ru. ORCID: 0009-0007-4234-5305

бухгалтерской службой, сбор всех финансовых средств на едином счете казначейства. Кроме того, организуется права Государственного казначейства и кадровые вопросы. Министерство финансов Великобритании, поясняется их состав. Проанализирована динамика исполнения бюджета в Италии и изучены возможности привлечения инвесторов в Италию. Проанализирована роль Казначейства в США, его структура, функции ведомств, действующих в системе. Изучена роль казначейства в учете всех видов финансовых активов и государственных долгов в казначейской системе США. По результатам исследования были сделаны выводы и разработаны научно-практические предложения.

Annoation:

The article analyzes the Treasury system in the budget execution of developed countries. In the countries of France, Great Britain, Italy, the USA, proposals were developed with scientific feedback on the role and importance of the Treasury. In particular, the history of the organization of the treasury in France, the distribution of its functions between the State Treasury and the State Accounting Service, the collection of all financial resources on a single account of the treasury are revealed. In addition, the rights of the State Treasury and personnel issues are being organized. UK Treasury, explains their composition. The dynamics of budget execution in Italy was analyzed and the possibilities of attracting investors to Italy were studied. The role of the Treasury in the USA, its structure, functions of departments operating in the system are analyzed. The role of the Treasury in accounting for all types of financial assets and government debts in the US treasury system has been studied. Based on the results of the study, conclusions were drawn and scientific and practical proposals were developed.

Kalit so'zlar: *budget, g'aznachilik, daromad, xarajat, mexanizm, siyosat.*

Ключевые слова: *бюджет, казначейство, доходы, расходы, механизм, политика.*

Keywords: *budget, treasury, income, cost, mechanism, policy.*

Kirish

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasi tizimida chuqur iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar, qator vazifalar bilan birgalikda, davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Shunga ko'ra budget mablag'larini ijrosini samaradorligini oshirishni rivojlangan mamlakatlarda g'aznachilik rolini o'rganib, mamlakatda foydalanish imkoniyatlarini organish muhim ahamiyatga ega.

Budget mablag'laridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlovchi mexanizmlardan biri – davlat budget ijrosining g'aznachilik tizimidir. Hozirgi zamonaviy iqtisodiy yangiliklardan kelib chiqib aytish mumkinki, budget jarayonini samarali tashkil qilishning amaliy ishlarini g'aznachilik nazoratidan chetda tasavvur etib bo'lmaydi. Buni hattoki, zamonaviy iqtisodiyot vakillari — olimlar, iqtisodchilar, qolaversa, sohaning yetuk mutaxassisleri ham asosli ravishda e'tirof etmoqdalar. Negaki, g'aznachilik tizimi budget daromadlari va xarajatlarini yagona g'azna hisobraqamiga jalb qilish, pul oqimlarini to'g'ri va samarali boshqarish, rejalashtirish, moliyaviy oqimlarning esa ilk va joriy nazoratini amalga oshirish, shu jumladan, davlat yuqori operativlikda ijro etish imkoniyatining kengayishiga xizmat qiladi.

Bugun mamlakatimizning iqtisodiy sohasida qator yangilik va o'zgarishlarning joriy qilinishi uning iqtisodiy jihatdan yanada takomillashishiga xizmat qilmoqda. Xususan, davlat moliyasi yo'nalishida institutsional islohotlar keng ko'lamda amalga oshirilyapti. Ushbu amaliy harakatlarning negizida eng avvalo, davlat budget ijrosiga dunyo tan olgan va dunyo mamlakatlarida sinovdan o'tgan, budget mablag'laridan natijakor foydalanishni ta'minlab beruvchi g'aznachilik tizimining joriy qilinganini alohida e'tirof bilan tilga olish lozim.

Mamlakatda davlat moliyasini boshqarishni, shu bilan bir qatorda davlat budgetni ijro etishda asosiy mexanizmlardan biri hisoblangan g'aznachilik tizimini tashkil etish va uni shakllantirishda xorij mamlakatlarining tajribasi muhim o'rin egallaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar hayotida davlat budget ijrosini boshqarish asosan, g'aznachilik tizimiga asoslanib amalga oshiriladi. Davlat budget ijrosining yangi mexanizmini amaliyotga joriy qilinishi respublikaning iqtisodiy sohasidagi bugungi kunda budget islohotlarining ulkan yo'nalishlaridan biri deyilsa, mubolag'a bo'lmaydi.

Sababi davlat moliyasini samarali boshqarish zaruriyati budget daromadlarini to'liq va o'z vaqtida to'plash bilan bir qatorda budget mablag'laridan oqilona foydalanish uchun ham budget xarajatlarning nazoratiga bo'lgan ehtiyojning kuchaytirilishini talab qiladi. [2]

Mamlakatimizda davlat budgetining g'azna ijrosini samarali tashkil qilinishiga mustaqillikning sharofati, jumladan, barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini qo'lga kiritish boshlanimizdan so'nggina muvaffaq bo'lindi. O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimi bo'yicha ham keng qamrovga ega bo'lgan muvaffaqiyatli natijani berayotgan islohotlarni joriy qilmoqda. Bunday islohotlarning ijobiy natijalari davlat budget g'azna ijrosining omadli tarzda joriy qilinishida yaqqol ko'zga tashlanadi, deya aytish mumkin.

Rivojlangan mamlakatlar budget ijrosida g'aznachilikning o'rni va ahamiyati to'g'risida iqtisodchi olimlar va makroiqtisodiy tahlil bo'yicha tadqiqotlar olib borgan yetuk mutaxassislar bo'lganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Jumladan, T.Eshnazarov [2], G.Qosimova [3], Sh.Shodmonqulovlar [4] mamlakat budget ijrosida xorijiy tajribalarni joriy qilinishning xususiyatlari hamda yo'nalishlari haqida fikrlar yuritishgan. Ular o'zlarining tadqiqotlarida budget ijrosiga doir tushunchalarga ta'rif berib o'tishgan.

D.Tashmuhamedovanning[11] "G'aznachilik asoslari" darsligida budget tizimi budgetlari g'azna ijrosini tashkil etishning nazariy va amaliy masalalarini qamrab olgan bo'lib, unda davlat budgeti g'azna ijrosining mohiyati va ahamiyati, g'azna ijrosini tashkil etish mexanizmi yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez kabi usullardan foydalanilgan. Xorijiy mamlakatlar jumladan Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya va AQShda davlat budgeti ijrosi jarayoni ta'minlashda davlat budgetini daromadlari, xarajatlari dinamikasi, ayrim tarmoq va yo'nalishlar bo'yicha budgetdan ajratilgan mablag'larning yillik ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Fransiya mamlakatining budget ijrosida G'aznachilikning o'rni. Fransiyada g'aznachilikning tashkil qilinishi XII-XIV asrlarda to'g'ri keladi, shu paytgacha kelib, birinchi marta davlat puli va qirolning mulki bir-biridan ajratib olindi. Harbiy va yirik kapital chiqimlar katta moliyalashtirishni talab qilganligi sababli tarmoqlangan tizim orqali pulni yig'ish va markazlashtirish ehtiyoji tutildi. XX asrlarda g'azna birligi, ya'ni Markaziy bankda yagona g'azna hisobi tamoyili tarkib topdi, g'aznaning ma'muriy tizimi shakllantirildi, unga davlat hisob-kitobi tarmog'i va pul nazorati berildi hamda Moliya vazirligiga bo'ysindirildi.

Fransiyada G'aznachilik funktsiyalari Davlat G'aznasi va Davlatning hisob-kitob yuritish bosh derektsiyasi o'rtasida bo'lingan. Har ikkala tashkilot yuqori tashkilotlarning ikkinchi pog'onasi hisoblanadi: Davlat G'aznasi Moliya Vazirligining, Davlatning hisob-kitob yuritish bosh derektsiyasi Budget vazirligining tarkibiga kiradi. Fransiyada barcha moliyaviy resurslar G'aznachilikning yagona hisobraqamida yig'iladi, bu mablag'larning miqdori Markaziy Bankda joylashgan barcha tushumlar va to'lovlar yig'iladigan shu hisobraqam bilan nazorat qilinadi. Davlat G'aznasi quyidagi huquqlarga ega:



● budget mablag'lari taqsimlovchilarining taqdim qilgan kirim orderlarini, shartnomalarda belgilangan qarz talabnomalarini ijro qilish uchun qabul qiladi, shuningdek, qarz majburiyatlari bo'yicha naqd pullarni va davlat tashkilotlarining huquqi bo'lgan boshqa shakldagi tushumlarni oladi;

● buyruqqa asosan, kreditorlarning talabi bo'yicha taqdim qilingan hujjatlar asosida xarajatlar to'lovini amalga oshiradi, shuningdek, sud qarorlarini ijro qiladi;

● davlat muassasalarini yoki ularning ishonchli vakillariga qarashli pul mablag'larini va moddiy boyliklarni saqlashni va qo'riqlashni ta'minlaydi;

● naqd pullar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni bajaradi;

● amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalarni tasdiqlaydigan buxgalteriya hisob-kitobi bo'yicha yuritiladigan xujjatlarni saqlaydi;

● buxgalteriyada ularga yuklatilgan buxgalteriya hisob-kitobini olib boradi.

Davlat buxgalterlari mintaqalar, departamentlar, kommunalar, shuningdek, mahalliy davlat tashkilotlari bo'yicha hisob-kitob yuritadilar. Davlat buxgalterlari budget mablag'lari taqsimlovchilarini moliyaviy maslahatchilaridir. Budgetning xarajatlar bo'yicha ijrosi Budget direktorati tomonidan nazorat qilinadi. Budget direktorati o'z tizimiga qarashli moliyaviy nazoratchilar yordamida mablag'larni xarajat qilish sur'atlarini nazorat qiladi. Xarajatlar juda qattiq nazorat qilinadi: Fransiya'dagi G'aznachilik Avstraliya'dagi G'aznachilik kabi davlatning ichki va tashqi qarzlarini boshqaradi, yuqorida aytib o'tganimizdek, muomalaga qimmatli qog'ozlarni chiqarishni nazorat qiladi, ularning hajmiga, to'lov muddatiga va tarkibiga bog'liq masalalarni yechadi.

Fransiya'dagi g'aznachilik tizimi faoliyatining eng muxim tomonlaridan biri shundaki, kadrlar masalasiga alohida e'tibor beriladi. Fransiya'dagi Davlat G'aznasi organlarida 58000 xodim ishlaydi, o'tgan yillar mobaynida Davlat G'aznasi Bosh Boshqarmasi kadrlarni sifatli tanlash va xodimlarni samarali boshqarishga alohida e'tibor beradi. 1998-yili talab darajasida kasb xodimlarini tayyorlashga yo'naltirilgan kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash amalga oshirildi. Mazkur tizimda mablag'lar harakati va ulardan maqsadli foydalanish ustidan joriy va keyingi nazoratni kuchaytirishga oid qonunlarni, me'riy hujjatlarni, yo'riqnomalarni bilmasdan turib, g'aznachilik organlaridagi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligisiz ishni tashkil etish mumkin emas.


Shu o'rinda Yevro Ittifoq tarkibiga kiruvchi yana bir mamlakat Italiya budget ijrosi haqida ham aytadigan bo'lsak, Italiya Budget ijrosi quyidagi tarkibiy bo'linmalarni o'z ichiga olishi ko'rishimiz mumkin. Ular quyidagilar:

- G'aznachilik Departamenti,
- Soliq siyosati Departamenti,
- Bosh buxgalteriya Departamenti.

Soliq siyosati departamenti davlatning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadi va daromadlari sohasidagi budget siyosatini amalga oshiradi.

Bosh buxgalteriya Departamenti o'z faoliyatini nafaqat tarmoqlar va soxalar iqtisodiyotini boshqarish balki, Markaziy Bank boshqaruvini ham amalga oshiradi.

Italiya'da yillar kesimida turli davlat rahbarlari davrida budget dinamikasi farqli ko'rsatkichlarga ega. Djuzeppe Konte Bosh vazir bo'lgan davrida 2019-yil budget eng yuqori ko'rsatkich bilan ajralib turdi (1-rasm).



1-rasm. Italiya budget daromadlari va xarajatlari dinamikasi[6]

Italiyaning xususiy-davlat iqtisodiyoti ko'plab investorlarni jalb qilish imkonini beradi. Bunday aralash tizim ularga xavfsiz operatsiyalarni, barqaror va maqbul, nazorat qilinadigan narx darajasini kafolatlaydi. Davlat bu yerda 3 foizdan ko'p bo'lmagan inflyatsiyani jilovlashni ta'minlab, umuman qulay investitsiya muhitini yaratmoqda.

Shu bilan birga, Italiya iqtisodiy tizimi tovarlarni, shuningdek, tegishli mahsulotlarni yaratishda texnologik jarayonlarni rivojlantirishda innovatsion, dadil yechimlarni joriy etish imkonini beradi.


Amerika Qo'shma Shtatlari G'aznachilik departamenti faoliyati. AQShda G'aznachilik to'g'ridan-to'g'ri Prezidentga bo'ysunadi va keng doiradagi iqtisodiy va moliyaviy funksiyalarni bajaradi. Budget jarayonida budgetni tayyorlashga javob beradigan Ma'muriy-budget boshqarmasi, auditga va nazoratga, hisob-kitob ishlariga javob beradigan Bosh budget-nazorat boshqarmasi kabi muassasalar qatnashadi, Soliq boshqarmasi va Bojxona boshqarmasi G'aznachilikning bir qismi hisoblanadi. G'aznachilik barcha tushumlarni va to'lovlarni Nyu-Yorkdagi Federal rezerv bankida o'zining bosh hisobraqami orqali nazorat qiladi. G'aznachilik barcha soliqlarni va boj to'lovlarni yig'adi, markazlashgan holda barcha yig'implarning yig'ilishini va ba'zi muassasalarga xizmatlar ko'rsatishni ta'minlaydi. Tushumlarni yig'ishda bank tizimidan foydalaniladi. G'aznachilik departamenti kompaniyalarning likvidiligi uchun javobgardir. G'aznachi kassa aylanmasini nazorat qilib turib ushbu informatsiya orqali kapital o'sishini ta'minlashi kerak.

Shuningdek, departament investitsiyalarga yo'naltirilgan aktivlarni ximoya qilishi kerak. Tarmoq departamentlari mablag'larning to'g'ri va samarali ishlatilishi bo'yicha nazoratni amalga oshiradi. Barcha xarajatlar tasdiqlangan budget parametrlari doirasida budgetdan mablag' oluvchilarning so'rovi asosida G'aznachilik tomonidan to'lanadi, bunda cheklardan va elektron pul o'tkazish vositalaridan foylaniladi. Budgetdan ajratilgan mablag'lar tarkibi ham g'aznachilik tomonidan, ham Ma'muriy-budget boshqarmasi tomonidan nazorat qilinadi. Shuningdek, AQShda G'aznachilik boshqa mamlakatlardagi kabi davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarishni va hisobini nazorat qiladi hamda ularning to'lov muddatlarini belgilaydi va auktsionlarda ularni joylashtirishni nazorat qiladi. Shu bilan birga, G'aznachilik davlat qimmatli qog'ozlarining ikkilamchi bozori qoidalarini belgilaydi, G'aznachilik qisqa muddatli kassa talablarini qoplash uchun doimiy haftalik qimmatli qog'ozlarni chiqaradi.

Shuningdek, AQSh g'aznachilik departamenti kompaniyalar o'z biznes operatsiyalarini amalga oshirishi uchun kassa mablag'lari etarililigini kafolatlaydi.

G'aznachilik buxgalteriya hisob-kitobiga javob beradi, oylik va yillik moliya hisobotlarini tayyorlash uchun ma'lumotlar yig'adi va muassasalar uchun me'yoriy hujjatlar tayyorlaydi. Ichki nazorat va audit funksiyalarini tarmoq departamentlaridagi bosh inspektorlar bajaradilar. Federal hukumat federal mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan mahalliy dasturlar bo'yicha tekshiruvni amalga oshiradi. AQShda G'aznachilik va Budget departamentlari faoliyati aniq muvofiqlashtirilgan. G'aznachilik budget tushumlari to'g'risida hujjatlarni tayyorlaydi va makroiqtisodiy asoslarni ishlab chiqishda qatnashadi. Ma'muriy-budget boshqarmasi Prezident Kongressiga taqdim qilinadigan xarajatlar smetasini tayyorlaydi, shuningdek, turli darajadagi budgetlarni umumlashtiradi.

AQShda g'aznachilik tizimida moliyaviy aktivlar va davlat qarzlarning barcha turlari bo'yicha hisob-kitob yuritiladi. G'aznachilik ning bosh kitobida moliyaviy aktivlarning hisobi olib boriladi. G'aznachilik davlatning ichki va tashqi, qisqa va uzoq muddatli qarzlarni boshqarish va moliyaviy majburiyatlar uchun javob beradi, qarzlar bo'yicha to'lovni amalga oshiradi.



2-rasm. Rivojlangan mamlakatlarning harbiy yo'nalish budget mablag'i[8]

AQShda mamlakatning budgetni asosiy manbayi harbiy sohadan olinadigan daromad hisoblanadi. Mamlakat dunyo miqyosida harbiy jihozlar va qismlar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinda turganligi sababli

ham uning budget daromadlarining katta qismi harbiy yo'nalish yaratadi. Mamlakatda harbiy yo'nalishning budgeti 610 mlrd.dollarni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Fransiyada 84,5 mlrd. dollarga tengdir (2-rasm).

Buyuk Britaniya budget ijrosida G'aznachilik tizimining ahamiyati. Buyuk Britaniya G'aznachiligi mamlakat moliyaviy va iqtisodiy boshqaruv siyosatini yuritishga javobgar hisoblanadi. Uning tarkibiga Buyuk Britaniya G'aznachilik Kansleri, Boshqaruv G'aznachiligi, Doimiy kotib kiradi.

Buyuk Britaniya G'aznachiligi quyidagi Departamentlar orqali mamlakatdagi budget ijrosini ta'minlaydi:

- Davlatning moliyaviy va budget Departamenti;
- Moliyaviy oqimni boshqarish Departamenti;
- Ishlab chiqarish va moliyaviy nazorat Departamenti;
- Makroiqtisodiy siyosat va xalqaro aloqalar Departamenti;
- Davlat xizmatlari Departamenti.

Buyuk Britaniya budget ijrosida G'aznachiligini tashkil qiluvchi yuqoridagi Departamentlarning o'ziga xos vazifasi mavjud. Budget va davlat moliyasi departamenti mamlakat budgetni asosini tashkil qiluvchi soliqlarni tartibga solish ya'ni, samarali soliq siyosatini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Moliyaviy boshqaruv departamenti bo'lsa, mamlakat moliyaviy boshqaruv siyosatini ishlab chiqadi va uni tarmoqlar hamda soxalarda amaliyotga tatbiq etilishni ta'minlaydi.


Davlat xizmatlari departamenti Buyuk Britaniya aholi va tashkilotlarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatishga mas'ul hisoblanadi. Moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish ham ushbu departament vazifasiga kiradi.

Moliyaviy nazorat departamenti mamlakat miqyosidagi ishsizlik va inflyatsiya darajasini pasaytirishga qaratilgan davlat siyosatini ishlab chiqadi.

Makroiqtisodiy siyosat va xalqaro aloqalar departamenti davlat xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirish siyosatini ishlab chiqadi.

Jamg'arma hisobvarag'iga kelib tushadigan asosiy tushumlar soliqlar bo'lib, ular taxminan Buyuk Britaniya budgetining 95 foizini tashkil qiladi.

Konsolidatsiyalangan budget jamg'armasi xarajatlari ikkita guruh xarajatlarini o'z ichiga oladi: parlament tomonidan tasdiqlanadigan xarajatlar (mudofaa, sanoat, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy soha) va shartli ravishda belgilangan xarajatlar, parlamentda ko'rib chiqilmaydi (davlat qarzini tashkil qiluvchi xarajatlar).



3-rasm. Buyuk Britaniya budget dinamikasi[7].

Buyuk Britaniya budget defitsitligi 2020-2021-yillarda yuqori ko'rsatkichni tashkil qilgan. Mamlakat budgeti ushbu davrda 320 mlrd.funtga teng bo'lgan miqdorda budget defitsitligini qayd etgan (3-rasm).

Xulosa

Xulosa o'rnida ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va albatta, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davrida O'zbekiston Respublikasi budget tizimidagi o'tkazilayotgan tub islohotlar mohiyati moliya tizimida davlat budget ijrosini takomillashtirish, g'aznachilik tizimining joriy qilinishi sanaladi. Bundan ko'zda tutilgan asosiy maqsad — budget mablag'larini samarali boshqarish, budget mablag'larining moliyaviy nazoratini kuchaytirish va barcha budget tashkilotlarining xarajatlarini boshqarishda g'aznachilik faoliyatining joriy qilinishiga, amalda bo'lishiga erishishdir.

Davlat budgetning g'azna ijrosi davlat budget va davlat maqsadli jamg'armalarining barcha daromadlarini,

shuningdek, budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tushumlarini yagona g'azna hisobraqamga jamlash va ularning barcha xarajatlarini shu hisobraqamdan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa davlat budget, budgetdan tashqari fondlar, budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'lari, davlat qarzlari va ularga xizmat ko'rsatish jarayonlarining tezkor nazoratini va monitoringini olib borish, davlat mablag'larining samarali ishlatilishini ta'minlash, davlat moliyaviy resurslarining harakati to'g'risida operativ tarzda ma'lumotlarni jamlash imkonini yaratadi.

Xorijiy davlatlar amaliyotini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat tuzilishi turlicha bo'lgan mamlakatlarda davlatga qarashli mablag'lar Moliya vazirligining tarkibiy qismi bo'lgan G'aznachilikning yagona hisobraqamida to'planadi. Davlat qarzlarni boshqarish g'aznachilikka yuklatilgan. G'aznachilik muomalaga qimmatli qog'ozlar chiqarishni, hajmini va to'lov muddatini nazorat qiladi, ularning tarkibiga bog'liq barcha masalalarni hal etadi.

O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy mamlakatlar bozor mexanizmlarini ko'r-ko'rona, sun'iylik bilan tadbir etib bo'lmaydi, chunki jamiyat a'zolari o'rtasida shunday an'anaviy ierarxik munosabatlar tizimi shakllanganki, ularni mensimaslik, keskin qarorlar qabul qilish chog'ida ularni e'tiborga olmaslik turli nohush holatlarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiyotni boshqarishning jahon amaliyotida tan olingan bir qator mexanizmlarini, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish sharoitlarimizga tegishli tarzda moslashtirgan holda, qo'llash va ijobiy foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Rivoj topgan mamlakatlarning iqtisodiy amaliyotidagi davlat budgetning g'aznachilik tizimini O'zbekiston Respublikasida joriy qilish va uni yanada rivojlantirish, davlat moliyaviy resurslarini boshqarishning axborotlashtirilgan tizimiga asos solish davlat moliyasining holati to'g'risida tezkor va ishonchli axborotlarga ega bo'lish uchun imkoniyatlar eshigini ochib beradi, bu esa davlat moliyasini samarali boshqarishning ta'minotidir. Yana aytish joizki, davlat budgetda mablag'lardan samarali hamda maqsadli foydalanish maqsadida ham g'aznachilik tizimi joriy qilindi. Ushbu tizimning yaratilishi iqtisodiy soha uchun joriy va yakuniy nazorat jarayonini takomillashtirish bo'yicha kattadan-katta o'zgarishlarning amalga oshishiga sabab bo'ldi.

Adabiyotlar:



1. Steven M. Bragg *"TREASURY MANAGEMENT"* O'quv qo'llanma. 2010 y. 56-bet.
2. Eshnazarov T. *"Davlat budgetning g'azna ijrosini rivojlantirish omillari. Budget ijrosiga g'aznachilik tizimini joriy etishning dolzarb muammolari"* Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami 2-son. Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA» nashriyoti, 2011 y.
3. G.A.Qosimova *"Davlat budget ijrosining g'aznachilik tizimi"* Darslik Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA» nashriyoti, 2011 y. 112-120-betlar.
4. Shodmonqulova Sh. *"G'aznachilik tizimining joriy qilinishining davlat moliyasi tizimidagi ahamiyati"* Ta'lim sohasidagi ishlanmalar bo'yicha xalqaro Amsterdam konferensiya maqolalar to'plami 4-son, 2017 y. 129-134-betlar.
5. <https://report.az/ru/drugie-strany/sovmin-italii-utverdil-byudzheta-na-2022-god/>
6. <https://take-profit.org/statistics/government-budget/italy/>
7. <https://www.fx.co.ru/analysis/305981>
8. <https://vido.com.ua/article/13085/infoghrfika-naskolko-vielik-oboronnyi-biudzhiet-ssha/>
9. <https://visasam.ru/emigration/economy/ekonomika-italii.html>
10. <https://www.lawfirmuk.net/post/mini-byudzheta-velikobritanii-na-2022-god>
11. D.A.Tashmuxeimova. *G'aznachilik asoslari. O'quv qo'llanma. T.:Iqtisod-moliya, 2018. 304 b.*